

O'ZBEK TILI TA'LIMY KORPUSIDA MADANIY-TIL BIRLIKLARINING IFODALANISHI

Mustafayeva Saodat Burxanovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18530931>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek tili ta'limiy korpusida lingvokulturemalarni ifodalash usullari tahlil qilinadi. Lingvokulturemalar milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi til birliklari sifatida korpus materiallarida qanday annotatsiyalanishi, izohlanishi va o'quvchi uchun tushunarli shaklda taqdim etilishi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'limiy korpusning madaniy kompetensiyani shakllantirishdagi o'rnini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'limiy korpus, lingvokulturema, lingvomadaniyat, milliy-madaniy birliklar, korpus lingvistikasi, til va madaniyat, o'zbek tili

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro aloqasi muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu jarayonda lingvokulturemalar til birliklari orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar va madaniy tajribani aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tili ta'limiy korpusi esa til o'rgatish jarayonida ana shunday birliklarni tizimli va kontekstual ravishda yoritish imkonini beradi. Mazkur ishda ta'limiy korpus materiallarida madaniy-til birliklarining berilishi, ularning annotatsiyalanishi va o'quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

“Ta'limiy korpus – maktab darsliklari va o'quv lug'atlariga asoslangan til korpusi bo'lib, o'zbek tili Milliy korpusining xususiy (tarkibiy) turi hisoblanadi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi AM-FZ-201908172 raqamli “O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida yaratildi, 2021-yilning 23-aprelida dastlabki taqdimoti o'tkazildi, hozirda uning bazasi boyitililmoqda va takomillashtirilmoqda”¹.

Ta'limiy korpuslar – tilshunoslikda keng qo'llaniladigan va juda muhim o'quv resursi bo'lib, ular tilning ma'lum bir qismini yoki turli til materiallarini o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash uchun ishlatiladi. O'zbek tili ta'limiy korpusi ham ana shunday ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilining ta'lim va ilmiy sohalarida ishlatilishiga xizmat qiladi. Bu korpus, asosan, maktab darsliklari va o'quv lug'atlariga asoslangan bo'lib, O'zbek tili Milliy Korpusining tarkibiy bir qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash ustuvor yo'nalishidagi o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish va o'zbek tilini internet jahon axborot tarmog'ida ommalashtirish, unda munosib o'rin egallashini ta'minlash vazifalarining ko'rsatib berilishi biz mutaxassislarga katta mas'uliyat yukladi”².

¹ M.A.Abjalova. Ta'limiy korpus – lingvodidaktikada asosiy texnologik vosita. Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy paradigmalari. Samarqand, 2021. –B. 363.

² B.Mengliyev. O'zbek tili milliy korpusi. Ma rifat” gazetasi. 2021-yil 11-avgust, № 32 (9357). –B. 4.

Ta'limiy korpuslar o'zbek tilida til ta'limini rivojlantirish, uning o'quv va ilmiy tahlilini amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu korpuslar, tilshunoslikka oid so'nggi yutuqlarni hisobga olgan holda, tilni o'rganishda samarali vosita hisoblanadi. Korpuslarning asosiy vazifalaridan biri – tilni o'rganish, undan foydalanish va o'rganilgan ma'lumotlar asosida turli ilmiy tadqiqotlar olib borishdir. Shu bilan birga, tilni diaxron (tarixiy) va sinxron (hozirgi zamon) nuqtai nazardan o'rganish imkoniyatlarini ham taqdim etadi.

Korpuslar tilni chuqurroq o'rganishga, uning grammatik va semantik strukturalarini aniqlashga yordam beradi. Xususan, ularni tilni o'rgatish jarayonida samarali qo'llash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, gap tuzish qoidalarini o'rgatish va lug'atlarning asosiy tamoyillarini shakllantirish mumkin. Shu tarzda, ta'limiy korpuslar tilni o'rganishda samarali texnologik qurolga aylanadi va til ta'limining zamonaviy shakllarini yaratishga yordam beradi.

“Umuman, ko'p maqsadli va polifunksional til korpusi – muayyan tilning Milliy korpusi hisoblanadi. Bunday korpus bazasida 1) tilning barcha uslublariga mansub o'ta katta hajmdagi matnlarning bo'lishi; 2) matnlarning lingvistik, morfologik va sintaktik jihatdan teganishi; 3) korpusning meta-ma'lumotlari mavjud bo'lishi zaruriy talablardan hisoblanadi”³.

Kompyuter texnologiyalarining tilshunoslikda qo'llanilishi til korpuslari orqali tilni o'rganishni yanada samarali qilish imkonini yaratdi. Tilsiz texnologiyalar yordamida, masalan, so'zning qo'llanish davri va chastotasini tahlil qilish mumkin. Bu esa nafaqat tilning grammatika tuzilishini aniqlash, balki tilning tarixiy o'zgarishlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Korpuslar yordamida terminologiya sohasini rivojlantirish, gap qurilishini tahlil qilish va tarjima dasturlarini yaratish kabi ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib boriladi.

Ayniqsa, elektron lingvodidaktikani rivojlantirish, turli lug'atlarni yaratish va ular asosida avtomatik tarjima tizimlarini shakllantirishda korpuslarning o'rni juda katta. Kompyuter texnologiyalarining korpus tilshunosligida qo'llanilishi kartoteka tizimlaridan avtomat jarayonlarga o'tishni ta'minladi, bu esa juda qulay va tezkor ish olib borishga imkon yaratdi.

Til korpuslari yaratishda eng muhim masalalardan biri – chastotali lug'atlarni tuzishdir. Bu lug'atlar tilning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zlarning qanday va qachon ishlatilishini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, turli sohalardagi terminologiyalarning shakllanishi va rivojlanishi ham korpuslar yordamida tahlil qilinadi. Bu jarayon, o'z navbatida, ilmiy va texnik sohalarda aniq va to'liq ma'lumotlar yaratishda katta ahamiyatga ega.

Ko'p tilli parallel korpuslar tarjimonlik faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. Bunday korpuslar yordamida tarjima dasturlarining lingvistik bazalari shakllantiriladi. Tarjima tizimlarida korpuslar yordamida so'z va iboralar orasidagi aloqalarni aniqlash, sintaksis va semantika o'zgartirishlarini tahlil qilish mumkin. Shu tariqa, ta'limiy korpuslarning yaratilishi va qo'llanilishi tilni o'rganish, tarjima qilish va o'zaro madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim texnologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili ta'limiy korpusi o'zining tarkibiy imkoniyatlari, interfeysi, leksikografik resurslari, qidiruv tizimi va analitik texnologiyalari orqali tilshunoslik, lingvodidaktika va madaniyatsunoslik sohalarida boy ma'lumot bazasini taqdim etadi. Ushbu korpus nafaqat

³ M.A.Abjalova. Ta'limiy korpus – lingvodidaktikada asosiy texnologik vosita. Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy paradigmalari. Samarqand, 2021. –B. 364.

lingvistik birliklarni o'rganishda, balki tilga xos madaniy-ma'naviy elementlarni – **lingvokulturemalarni** aniqlash, tahlil qilish va ularni ilmiy asosda tasniflashda ham muhim manba sifatida xizmat qiladi.

O'zbek tili ta'limiy korpusida lingvokulturemalarning berilishi til va madaniyat uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, lingvokulturemalar korpus materiallarida kontekst asosida berilishi, ularning mazmunini chuqurroq anglash va o'rganuvchilarda milliy-madaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Annotatsiya va izohlar orqali bu birliklarning semantik, pragmatik hamda madaniy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, ta'limiy korpusda lingvokulturemalarni tizimli va izchil taqdim etish o'zbek tilini o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi, o'quvchilarning til birliklarini faqat grammatik emas, balki madaniy kontekstda ham idrok etishiga imkon yaratadi. Natijada, ta'limiy korpus nafaqat lingvistik bilimlarni, balki milliy qadriyatlar va madaniy tafakkurni yetkazuvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining jins jihatidan xoslanishi.- O'zbek tili va adabiyoti, 1999, 5- son, –64-66 b.
2. Mo'minov S., Rasulov Q. Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida. Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. –Samarqand: SamDU, 2007. – 70-72 b.
3. S.Mo'minov. O'zbek she'riyatida paralingvistik vositalar va ularning psixolingvistik asoslari / Journal of Advanced Research and Stability, Volume: 11| Nov-2022. –B. 272.
4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг бугунги муаммолари // “Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б.156.
5. Mengliyev .B. O'zbek tili milliy korpusi. Ma rifat" gazetasi. 2021-yil 11-avgust, № 32 (9357). –B. 4.
6. Long C. A social cognitive accoun to frelational work. Journal of Politeness research, 12 (1), 2016. – 1-26 p.
7. I.Qurbonov. Andirning paydo bo'lishi va taraqqiyoti arxeologik va etnogirafik manbalarda. Eurasian journal of academic researchinnovative Academy Research Support Center. Volume 3Issue1, Part 6.January, 2023. –54.p
8. Sodiqova Sh.B. O'zbek tilida hurmat kategoriyasi. Monografiya – Toshkent: ToshShI, 2010. – 120 b.
9. Sifianou M. Silence and Politeness, in Jaworski, A. (eds.), Silence: Interdisciplinary Perspectives. - Berlin: Mouton de Gruyter, 1997. –79 p.
10. Simpson P. Politeness Phenomena in Ionesco's The Lesson. In R. Carter& P. Simpson (Eds.), Language, Discourseand Literature: AnIntroductoryreader in Discourse Stylistics.- London: Unwin Hayman,1989. – P.171-193.